ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН	1511
Маденова Эльмира Нзаматдиновна, Махмудова Маяна Азатовна	
ПРАВОВАЯ ПРИРОДА СОГЛАШЕНИЯ О РАЗДЕЛЕ ПРОДУКЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1516
Мансуров Обид Зайнидинович	
REKLAMA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHGA OID NAZARIY QARASHLAR.....	1522
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA VOSITACHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI.....	1528
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI SUBEKTLLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MEKANIZMLARINING RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIGA MOS TRANSFORMATSIYASI	1534
To'rayev Shavkat Shuxratovich, Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
YASHIL IQTISODIYOT VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	1540
Yaxshibayev Ulug'bek Shavkat o'g'li	
THE IMPORTANCE OF SPOKEN ENGLISH IN GLOBAL COMMUNICATION	1545
Dr. Mamatkulova Shohista Jalolovna	
MAHALLIY DAVLAT ORGANLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1549
Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li	
IQTISODIYOTNI DEKARBONIZATSIYALASH: MOHIYATI VA IMKONIYATLARI.....	1554
Xashimova Salima Nigmatullayevna	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISHINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	1558
B.B.Mambetnazarov, Tureev Atabek Abatovich	



BUXORO VOHASINING MUSULMON ZIYORAT TURIZMI IMKONIYATLARINI BAHOLASH: ACES 3.0 METODIKASI ASOSIDAGI TAHLIL	1563
Kurbanova Mohinur Xabib qizi	
KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH OMILLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	1568
Mustafakulova Nodira Primovna	
BEVOSITA VA BILVOSITA SOLIQQA TORTISHNI OPTIMAL TASHKIL ETISH METODOLOGIYASI	1572
Qodirov Baxodir Qudratovich	
SUT VA SUT MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING USLUBIY JIHATLARI	1577
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ВНУТРЕННИЙ АУДИТ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	1581
Шарахметов Шерзад Шаазимович	
O'ZBEKISTON "YASHIL" IQTISODIYOT SARI: QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH METODLARI.....	1588
Qodirov Baxodir Tursunovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING MOHIYATI VA MAZMUNI.....	1592
Feruza Mirzoyeva Salimovna	
YASHIL O'SISH, YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH: ATAMAVIY VA O'ZARO BOG'LIQLIK MASALASI.....	1597
Djalilov Sardor Sadilloevich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI DAROMAD VA XARAJATLARNI DEKLARASIYALASHNING TUTGAN O'RNI	1601
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
DIGITAL ECONOMY AND GREEN TECHNOLOGIES: INNOVATIONS ON THE ROAD TO SUSTAINABLE DEVELOPMENT	1606
Amiriddinova Madinabonu Zayniddin kizi	
FARG'ONA VODIYSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TO'QIMACHILIK KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATI TAHLILI VA ULARNI BAHOLASH	1609
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
SIFAT VA RAQOBATBARDOSHLIK.....	1616
Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	1620
Mardiyev Akrom Djumaboyevich	
BIRLAMCHI TIBBIY-SANITARIYA MUASSASALARINI NATIJADORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI	1627
S.J. Sultanov	
TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAENS NAZORAT VA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1633
Ulashbayev Shohruh Abdivaxobovich	
BIOMASSA ASOSIDA OZUQA ISHLAB CHIQARISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIKGA ERISHISHNING AYRIM JIHATLARI.....	1639
Xazratkulov Niyoz Namazbayevich	
STRATEGIC MANAGEMENT AND DEVELOPMENT OF CORPORATE TALENTS	1644
Shoyunusova Arofat, Sanjar Mirzaliev	
AGROTIZIMDA ANOR YETISHTIRISHNING O'RNI VA IQTISODIY AHAMIYATI	1648
Ortiqov Sulton Davronqul o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATINI HOZIRGI KUNDAGI TAHLILI	1652
Mahmudova Chinora Anvar qizi	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA IMTIYOZLAR VA KAFOLATLAR TIZIMINING AHAMIYATI	1657
Nizamov Xusniddin Fazliddinovich	
SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARINING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRINING EKONOMETRIK TAHLILI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	1663
Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li	



MINTAQAVIY RIVOJLANISH SHAROITIDA SHAHARLAR AGLOMERATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI.....	1670
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR.....	1674
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И МЕТОДЫ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКЦИОНЕРНЫХ КОМПАНИЙ.....	1678
Бекбаева Феруза Бахтиеровна	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA BUDJET BILAN HISOB-KITOBBLAR AUDITINI TASHKIL QILISHNING AMALIY JIHATLARI.....	1684
Rashidov Zuhridin Sanjar o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1690
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАКТИКИ УПРАВЛЕНИЯ ВАЛЮТНЫМИ РИСКАМИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ	1695
Тугалов Бобур Қаршибой угли	
HAVO TRANSPORTI ORQALI YUK TASHUVCHI TADBIRKORLIK SHAKLLARI VA UNDAGI MUOMMOLAR	1703
Anvarova Dilfuza Abdusattor qizi	
HUDUDIY IQTISODIYOTDA INNOVATSION SIYOSAT MEXANIZMINI SHAKLLANTIRISHNING TIZIMLI MODELI	1709
G'aniyev Sanjar Poziljon o'g'li	
СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ УЧЕТА ЗАТРАТ И АУДИТА В УЗБЕКИСТАНЕ: НАЦИОНАЛЬНАЯ БАЗА И МСА.....	1716
Юлчиев Ойбек Улуғбек ўғли	
TIJORAT BANKLARIDA YANGI BANK XIZMATLARINI JORIY ETISHDA XORIJIY TAJRIBALARNI INTEGRATSIYALASH YO'LLARI.....	1723
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH DAVRIDA KICHIK BIZNES IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH.....	1731
Isroilov Dilshodbek Rustamovich, Isroilova Odina Rustambek qizi	
O'RMON XO'JALIGINI MOLIYALASHTIRISHDA MOLIYAVIY RESURLAR VA MANBALAR.....	1737
Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna	
ZAMONAVIY JAHON IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI, ISROFI VA YO'QOTISHLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI.....	1743
Nazarova Gulbahor Raxmonkulovna	
KORXONA FOYDASI VA UNING RAQOBATBARDOSH NARX SIYOSATINI MAKSIMALLASHTIRISH YO'LLARI.....	1748
Axmadjonov Murodjon Axadjon o'g'li	
DEVELOPMENT PRIORITIES FOR THE FRUIT AND VEGETABLE SECTOR IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S FOOD SECURITY POLICY	1754
Nazarova Munavvar Soatmurod qizi	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA HR MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1761
Xamroyeva Kumush Alisherovna	
QURILISH SANOATIDA BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI.....	1768
G'ulomova Shaxlo Baxtiyor qizi	
TURISTIK DESTINATSIYA TUSHUNCHASINING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI	1772
Bekberganov Izzat Hurmat o'g'li	
TRANSPORT XIZMATLARI BOZORI TUSHUNCHASI VA UNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI	1775
Jo'rayeva Shahzoda Farhod qizi	
O'ZBEKISTONDA QURILISH MAXSULOTLARI ISHLAB CHIQUARADIGAN KORXONALARNING RAQOBATBARDOSHLIGI TAHLILI	1781
Yusufova Laylo G'ayrat qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BANK MAHSULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH TENDENSIYALARI.....	1788
Xujamuratov Abbos Mardonovich	
PR-BO'LIMI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING TARKIBIY-FUNKTSIONAL YONDASHUVLARI.....	1792
Ergasheva Fotimaxon Ibragimovna	



TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS TENDENSIYALARI	1797
Xujakulova Odina Valijonovna	
DAVLATNING IQTISODIY MUVOZANAT VA BARQAROR RIVOJLANISHDAGI ROLI.....	1805
Uzoqov Bekzod Bozor o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MAHALLIY MODA BRENDINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	1810
Tuxtayeva Oydinoy Normamatovna	
DEVELOPMENT OF TOURISM INFRASTRUCTURE IN UZBEKISTAN	1817
Sadinova Maqsuda Azamjonovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINING EKONOMETRIK TAHLILI	1824
Raxmonov Bekzod Sharibjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1832
Djurayev Laziz Tursunboyevich	
TA'LIM TASHKILOTLARINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETINGNING ROLI	1836
Raximov Faxriddin Shavkatovich, Abdullayev Ilyos Sultanovich	
TURIZM INDUSTRIYASI VA TURIZM INFRATUZILMASINING MOHIYATI HAMDA TARKIBIY QISMLARI	1844
Mo'minova Mavjuda Sharifovna	
МОДЕРНИЗАЦИЯ НАЛОГОВОЙ ПОЛИТИКИ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1849
Бозорова Озода Рахимовна	
EKSPORT FAOLIYATINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINING INSTITUTSIONAL TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI	1854
To'rayeva Yulduz Shamsiddin qizi	
ZAMONAVIY ISH JOYLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLARNING ROLI	1859
Tulyaganova Aziza	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIGA INVESTISIYALARNI YO'NALTIRISHDA QULAY INVESTISION MUHITDAN OQILONA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	1864
Xikmatov Xayrullaxon Maxmurxonovich, Bo'riyev Lochinbek Ortiqbopoyevich	
O'ZBEKISTONDAGI KLASSTERLARNING FAOLIYATI TO'G'RSIDA	1870
Azimova Feruza Payziyevna, Yuldashev Samad Normo'minovich	
ФИНАНСОВОЕ ОЗДОРОВЛЕНИЕ КАК СТРАТЕГИЧЕСКИЙ ИНСТРУМЕНТ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ КОМПАНИИ	1875
Алиева Сусанна	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR JORIY AKTIVLAR TAHLILINING NAZARIY KONSEPSIYASI VA METODOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	1881
Nurmanov U.A.	
ALOQA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA INNOVATSION XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	1887
Shirinova G.X.	
XIZMATLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISH VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1893
Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA RIVOJLANISHI: 2017-2025-YILLAR DINAMIKASI TAHLILI	1900
Sarsenbayev Baxitjan Abdulgazievich, Allamberganova Nargiza Kuanishbayevna, Turg'anbayeva Ramiza Tolibayevna	
ГЛОБАЛЬНЫЕ И ЛОКАЛЬНЫЕ ТРЕНДЫ ИННОВАЦИЙ В СФЕРЕ БАНКОВСКИХ УСЛУГ	1907
Махамаджанов Мухаммадали Музаффарович	
YO'LOVCHI TRANSPORT XIZMATLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI	1912
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Aktamov Abduvali Abdug'ani o'g'li	
BUXORO VILOYATIDA HUNARMANDCHILIK SOHASINING RIVOJLANISHI: EKONOMETRIK TAHLIL VA PROGNOZ (2014-2030-YILLAR)	1917
A.F. Ergasheva	
RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDAGI O'RNI.....	1930
Amonov Mirzohid Tuymuratovich	



OLIY TA'LIM TIZIMIDA XIZMAT KO'RSATUVCHI MUASSASALAR RAQOBATBORDOSHLIGINI OSHIRISH BO'YICHA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	1937
Begmatova Ziyoda Zaxidjon qizi	
RISKNI SUG'URTALASH ORQALI KORXONA FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISH.....	1942
Maxmudov Shoxruxbek Asror o'g'li	
GLOBAL STANDARDS AND PRACTICES IN MEDICAL TOURISM: AN IN-DEPTH ANALYSIS OF CURRENT TRENDS, CHALLENGES, AND REGULATORY FRAMEWORKS.....	1947
Adilova Diyora Ulugbekovna	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УПРАВЛЕНИЯ АКВАКУЛЬТУРНЫМ СЕКТОРОМ НА ОСНОВЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ И ТЕХНОЛОГИЙ ОПТИМИЗАЦИОННОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ.....	1952
Мырзатаев Саламат Муратбаевич, Аскарлов Бахтияр Мамытович	
MINTAQAVIY SUG'URTA BOZORINING MINTAQANING IJTIMOY-IQTISODIY HOLATIGA TA'SIRI	1958
Xoltoyev Mirusmon Mirxamit o'g'li	
BANK XIZMATLARINING RAQAMLASHTIRILISHI DARAJASI VA FINTECH PLATFORMALARINING ROLI	1963
Abdullayeva Dilfuza Atajan qizi	
DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNING MOHIYATI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENSIYALARI.....	1969
Jo'rayev Farruxbek Muxiddin o'g'li	
FARMATSEVTIKA FAOLIYATINING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI	1972
Yaqubov Timurbek G'anibekovich	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF ECOLOGICAL ENTERPRISES' ACTIVITY	1976
D. Meiliyeva	
BUDJET MABLAG'LARINING BIR QISMINI JAMOATCHILIK FIKRI ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH ISLOHOTLARI	1979
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
MINTAQ IQTISODIYOTDA SANOAT SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHDA SANOAT TUZILMALARINING IXTISOSLASHUV TENDENSIYALARI.....	1987
Nabiyev G'ulom Abdisalomovich	
MINTAQ IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA LOGISTIK XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI RESURLARIDAN FOYDALANISH TAHLILI.....	1997
Xalimov Javlonbek Shaxriyorovich	
SOLIQ TIZIMIDA TOVAR TRANSPORT YUK XATLARI RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	2004
Muxammadov Nodir Karimovich	
НЕПАРАМЕТРИЧЕСКОЕ ОЦЕНИВАНИЕ ИНТЕРВАЛАМИ ФИКСИРОВАННОЙ ШИРИНЫ: АСИМПТОТИЧЕСКАЯ СОСТОЯТЕЛЬНОСТЬ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ	2010
Турсунов Гафур Таирович	
INNOVATION RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI	2017
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
ZARAFSHON MINTAQASIDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH VA UNING HUDUDIY MUTANOSILIGIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR TAHLILI	2022
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
YOSHLAR BANDLIGINI TA'MINLASHDA STARTAP VA TADBIRKORLIK EKOTIZIMINING ROLI	2033
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
PNEVMOTRANSPORT TIZIMIDA PAXTA XOMASHYOSINING SHIKASTLANISHINI ANIQLOVCHI QURILMANING MATEMATIK MODEL ASOSIDA TAJRIBALAR O'TKAZISH.....	2037
Boltabayev Bekzod Egamberdiyevich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI FOND BOZORI ORQALI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	2042
Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich	



AKSIYADORLIK JAMIYATLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI FOND BOZORI ORQALI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Soliq va soliqqa tortish” kafedrası

katta o'qituvchisi

[Ocid: 0009-0005-7188-3925](https://orcid.org/0009-0005-7188-3925)

n.qurbonov@tsue.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatlarining investitsiya faoliyatini fond bozori orqali moliyalashtirishning hozirgi holati, uning muammolari va takomillashtirish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy iqtisodiyotda aksiyadorlik jamiyatlari (AJ) investitsiya faoliyatini samarali amalga oshirish uchun katta miqdorda moliyaviy resurslarga muhtoj. Shu munosabat bilan, fond bozori aksiyadorlik jamiyatlariga moliyalashtirishning muhim vositasiga aylanmoqda. Fond bozori orqali kapital jalb qilish kompaniyalarga o'z faoliyatini kengaytirish, innovatsiyalarni rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, bozor mexanizmlarining samarali ishlashi va moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasi aksiyadorlik jamiyatlarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: aksiyadorlik jamiyatlari, investitsiyalar, investitsiya faoliyati, moliyalashtirish, fond bozori, qimmatli qog'ozlar, investitsion banklar, fond birjasi, moliya bozorlari, Valyuta birjasi, elektron savdo tizimlari, aksiyalar, obligatsiyalar, depozit sertifikatlari.

Abstract. this article analyzes the current state of investment activity of joint-stock companies financed through the stock market, as well as identifies problems and ways to improve this process. In addition, in the conditions of the modern economy, joint-stock companies need significant financial resources for the effective implementation of investment activities. In this regard, the stock market is becoming an important instrument for financing joint-stock companies. Raising capital through the stock market allows companies to expand their operations, develop innovations and increase competitiveness. At the same time, the effective functioning of market mechanisms and the diversification of financing sources are important for ensuring the economic sustainability of joint-stock companies.

Key words: joint stock companies, investments, investment activity, financing, stock market, securities, investment banks, stock exchange, financial markets, currency exchange, electronic trading systems, stocks, bonds, depositary certificates.

Аннотация. в данной статье анализируется современное состояние инвестиционной деятельности акционерных обществ, финансируемой через фондовый рынок, а также выявляются проблемы и пути совершенствования данного процесса. Кроме того, в условиях современной экономики акционерные общества нуждаются в значительных финансовых ресурсах для эффективного осуществления инвестиционной деятельности. В связи с этим фондовый рынок становится важным инструментом финансирования акционерных обществ. Привлечение капитала через фондовый рынок позволяет компаниям расширять свою деятельность, развивать инновации и повышать конкурентоспособность. Наряду с этим эффективное функционирование рыночных механизмов и диверсификация источников финансирования имеют важное значение для обеспечения экономической устойчивости акционерных обществ.

Ключевые слова: акционерные общества, инвестиции, инвестиционная деятельность, финансирование, фондовый рынок, ценные бумаги, инвестиционные банки, фондовая биржа, финансовые рынки, валютная биржа, электронные торговые системы, акции, облигации, депозитарные сертификаты.

KIRISH

Bugungi kunda fond bozori aksiyadorlik jamiyatlariga uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarini taqdim etadi. U aksiyalar va obligatsiyalar orqali investitsiyalarni jalb qilishga imkon yaratadi. Bu bozorda ishtirok etish aksiyadorlik jamiyatlariga nafaqat kapital yig'ish, balki bozor sharoitlarini tahlil qilish va korporativ boshqaruvni yaxshilash uchun ham xizmat qiladi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-may kuni qabul qilingan “2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida”gi PF-5992-sonli Farmonida, “qimmatli qog'ozlar bozorida banklarning operatsiyalarini faollashtirish, tijorat banklari tomonidan korporativ obligatsiyalarni chiqarish va joylashtirish hamda boshqa



instrumentlar uchun ma'muriy to'siqlarni kamaytirish, bir vaqtning o'zida nazoratni kuchaytirish, banklarning qimmatli qog'ozlarini xalqaro kapital bozoriga chiqarish bo'yicha huquqiy bazani yaratish" lozimligi ko'rsatib o'tildi [1].

Hozirgi kunda jahon fond bozorlari tez sur'atlarda kengayib borayotgan bir paytda, investitsiyalarni jalb qilish jarayonida fond bozori va qimmatli qog'ozlar bozorida zamonaviy moliyaviy vositalarni yaratish hamda investitsion faoliyatni qimmatli qog'ozlar hisobiga moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston sharoitida aksiyadorlik jamiyatlari fond bozori va birja savdolarining asosiy ishtirokchilari sifatida faoliyat olib boradi. Ularning barqarorligi esa o'z navbatida fond bozorining samaradorligini oshirishda amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega.

Bugungi iqtisodiy sharoitlar institutsional investorlar bilan bir qatorda xususiy investorlarning faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratishni talab qiladi. Shu munosabat bilan O'zbekiston fond bozorining kliring infratuzilmasida ikki asosiy tashkilot faoliyat yuritadi, ular kliring markazlari hisoblanadi. Ushbu markazlar fond bozorining ma'lum segmentlarida kliring operatsiyalarini amalga oshiradi. Mustaqil yuridik shaxs maqomidagi kliring markazlari mavjud emas; odatda, bu funksiyalar hisob-kitob depozitariysi, hisob palatasi yoki fond birjasining tizimli kompleksi tomonidan bajariladi.

Shuningdek, O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorining nostatsionarligi va yuqori risk darajasi hisobga olinsa, savdo ishtirokchilari tomonidan pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlarni oldindan zaxiralash mexanizmining mavjudligi bugungi kunda ob'ektiv zarurat hisoblanadi. Biroq, fond bozorining samaradorligini oshirish maqsadida zaxira miqdorini yuqori darajada ushlab turishni bosqichma-bosqich kamaytirish zarurati dolzarb ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ta'kidlash joizki, Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda "qimmatli qog'ozlar bozori" va "fond bozori" tushunchalarining mazmuni va ahamiyati bo'yicha hanuzgacha bahs-munozaralar davom etmoqda. Xorijiy mutaxassislardan biri, professor Ya.M. Mirkin, fond bozori va qimmatli qog'ozlar bozori tushunchalarining bir-biriga mos kelishini ta'kidlaydi [2]. Shunga qaramay, ayrim olimlar prinsipial jihatdan ushbu tushunchalarni parallel ravishda ishlatishdan tiyiladilar va o'z ilmiy tadqiqotlarida asosan faqat "qimmatli qog'ozlar bozori" yoki "fond bozori" atamalaridan birini qo'llaydilar. Biroq, amaliyotda ko'pchilik mualliflar fond bozorida nima uchun "qimmatli qog'ozlar bozori" atamasini ishlatish mumkinligini aniq tushuntirib bermagan.

Xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida fond bozori ko'pincha korporatsiyalarning qimmatli qog'ozlar bozori sifatida tushuniladi. Bu nuqtai nazardan, davlat tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar aksiyalardan farqli ravishda qarz majburiyatlarini ifodalaydi, ular korporatsiyaning kapitalidagi aksiyadorlik ulushidan farq qiladi [3].

Qimmatli qog'ozlar esa nafaqat tovarlar bozorida, balki pul bozorida ham muomalada bo'lib, natijada qimmatli qog'ozlar bozorini tashkil etadi [4]. Shu asosda, fond bozori qimmatli qog'ozlar bozorining tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Ushbu bozorda moliyaviy qimmatli qog'ozlar maxsus tovar sifatida ko'rib chiqilib, ular bilan oldi-sotdi bitimlari amalga oshiriladi. Bizning fikrimizcha, mazkur ta'rif fond bozori mazmunini eng to'liq va batafsil ochib bera oladigan ta'riflardan biridir.

Ko'plab mutaxassislar va iqtisodchi olimlar ham ushbu fikrni qo'llab-quvvatlaydilar. Ularning ta'kidlashicha, qimmatli qog'ozlar bozori fond bozoridan kengroq tushuncha bo'lib, u faqat fond qimmatli qog'ozlarini — ya'ni investitsion qimmatli qog'ozlarni qamrab oladi [5]. Bu esa shuni anglatadiki, fond bozori korporativ moliyalashtirishda foydalaniladigan aksiyalar, obligatsiyalar hamda investitsion fondlarning qimmatli qog'ozlarini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, fond bozori tarkibiga rasman qimmatli qog'ozlar bo'lmagan, biroq ular bilan bog'liq bo'lgan fyucherslar, opsiolar va fond indekslari kabi hosilaviy moliyaviy instrumentlar ham kiritiladi. Shuni ta'kidlash lozimki, fond bozori moliya bozorining asosiy tarkibiy elementi sifatida moliya bozorining boshqa segmentlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Moliya bozori va fond bozori kategoriyalarining o'zaro nisbatini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Odatda olimlar moliya bozori tarkibida ikki asosiy segmentni ajratadilar: pul bozori va moliyaviy kapital bozori. Moliya kapitali bozorida uzoq muddatli moliyaviy resurslar aylanadi, pul bozorida esa naqd pul va qisqa muddatli ssudalar kabi qisqa muddatli instrumentlar aylanadi [6]. Zamonaviy moliya tizimi kredit mexanizmiga asoslangan bo'lib, oltin bundan mustasno, boshqa barcha moliyaviy instrumentlar kimdir uchun majburiyatni ifodalaydi va tegishli bozorlarda, xususan, aksiyadorlik jamiyatlari, banklar va davlat moliyaviy bozorlarida muomalada bo'ladi.

Fond bozori infratuzilmasi bozor infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bois, umumiy bozor infratuzilmasini ta'riflash yondashuvlaridan fond bozorining infratuzilmasini ta'riflashda ham foydalanish mumkin. Masalan, V. Galanov va A. Basov fond bozori infratuzilmasini institutsional yondashuv asosida "fond bozoriga xizmat ko'rsatadigan va uning barcha qatnashchilariga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan barcha



tashkilotlar” deb ta’riflaydilar [7]. Yu. Sizov esa qimmatli qog’ozlar bozorining infratuzilmasini “bozorning samarali ishlashini ta’minlovchi tizimlar majmui” deb hisoblaydi. Shuningdek, fond infratuzilmasiga “fond bozorida risklarni boshqarish tizimi” sifatida qarash ham maqbul hisoblanadi [8]. Ushbu yondashuv tarafdori V. Ovchinnikov fond bozori infratuzilmasini “investorlarning manfaatlarini inqirozlardan himoya qilish bo’yicha umumiy vosita” sifatida ta’riflaydi [9].

Mahalliy iqtisodchi olim A.V. Vaxabov investitsiya resurslarini samarali taqsimlashni nazorat qiluvchi asosiy mexanizm sifatida fond birjasini ko’rsatadi va rivojlangan qimmatli qog’ozlar bozorining ushbu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun zarur ekanligini ta’kidlaydi [10]. Shuningdek, M.B. Hamidulin ilmiy tadqiqotlarida O’zbekistonda qimmatli qog’ozlarni chiqarish va joylashtirish orqali investitsiyalarni jalb etish uchun barcha zarur shart-sharoitlar mavjudligi qayd etiladi [11]. U fond bozorida tashkilotlarning passiv ishtirok etishining bir necha sabablarini ko’rsatadi: birlamchi bozorda strategik ahamiyatga ega tashkilotlarning jalb etilmasligi, davlatning aksiyadorlik ulushining yuqoriligi, shuningdek ikkilamchi bozorda aksiyalarning past likvidligi. Ushbu muammolar hal etilmaguncha, fond bozori orqali investitsiyalarni jalb etish darajasi yuqori bo’lmisligi taxmin qilinadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, moliya bozorining barcha segmentlari o’zaro bog’liq bo’lib, birgalikda faoliyat yuritadi. Misol uchun, qimmatli qog’ozlar bozori ham pul bozoridan, ham moliyaviy kapital bozoridan tashkil topgan bo’lib, pul bozorida muomala muddati bir yilgacha bo’lgan qimmatli qog’ozlar, moliyaviy kapital bozorida esa bir yildan ortiq muddatli qimmatli qog’ozlar aylanadi. Shu bilan qimmatli qog’ozlar bozori bir vaqtning o’zida pul bozori va kapital bozorining bir qismi sifatida faoliyat ko’rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlashda me’yoriy-huquqiy xujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma’lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlil qilingan. Mavzuni o’rganish davomida umumiqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O’zbekistonda fond bozorining shakllanishi va rivojlanishi bir necha muhim bosqichlarga bo’linadi, ularning har biri o’ziga xos xususiyatlar va iqtisodiy-kontseptual o’zgarishlarni o’z ichiga oladi.

1-jadval. O’zbekistonda fond bozorining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari¹

Bosqich	Davr	Asosiy xususiyatlar	Huquqiy va institutsional o’zgarishlar
Birinchi bosqich	1991–1993	Fond bozorining dastlabki institutlari tashkil etildi. “Toshkent” birjasi qoshida qimmatli qog’ozlar savdosi bo’limi ochildi.	Qimmatli qog’ozlar bozorini tartibga soluvchi birinchi qonun qabul qilindi. Qimmatli qog’ozlar bozorida ishtirok etuvchilar attestatsiyasi boshlandi.
Ikkinchi bosqich	1994–1996	Keng ko’lamli xususiylashtirish boshlandi. Aksiyalar va veksellar bozori jadal rivojlandi.	“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish” qonuni qabul qilindi. “Qimmatli qog’ozlar bozorining faoliyat mexanizmi” qonuni qabul qilindi. - Depozitar tizimi shakllandi.
Uchinchi bosqich	1997–2000	Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari bozori shakllandi. Birjadan tashqari bozorlar rivojlana boshladi.	Veksel muomalasini tartibga solish choralari qabul qilindi. Aksiyadorlik jamiyatlarda davlat ulushining tiklanishi va ko’paytirilishi boshlandi.
To’rtinchi bosqich	2001–2006	Aksiyalarning uyushgan va uyushmagan bozorlarida rivojlanish sekinlashdi. Yangi qimmatli qog’ozlar segmentlari paydo bo’ldi: depozit sertifikatlar, korporativ obligatsiyalar, Markaziy bank obligatsiyalari, davlat g’aznachilik majburiyatnomalari.	Bozorning diversifikatsiyasi va moliyaviy instrumentlar sonining ortishi.

1 Muallif ishlanmasi



O'zbekistonda fond bozorining shakllanishi va rivojlanish jarayonlari aksiyadorlik jamiyatlarining (AJ) investitsiya faoliyatini moliyalashtirish tizimining samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Har bir rivojlanish bosqichi AJlarning moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatlari, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarining rivojlanishi va korporativ boshqaruvning takomillashuviga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

2-jadval. Fond bozorining rivojlanish bosqichlari hamda aksiyadorlik jamiyatlari investitsiya faoliyatini moliyalashtirishga ta'siri²

Bosqich	Davr	Asosiy xususiyatlar	Qonunchilik yangiliklari	Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsiya faoliyatiga ta'siri
1-bosqich	1991-1993	Fond bozorining dastlabki shakllanishi.	"Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida" qonunining qabul qilinishi.	AJlar uchun moliyaviy manbalarni diversifikatsiya qilish imkoniyatining paydo bo'lishi.
2-bosqich	1994-1996	Xususiylashtirish jarayonining boshlanishi.	"Aksioner jamiyatlari va aksionerlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" qonunining qabul qilinishi.	AJlar aksiyalarini chiqarish orqali investitsiyalarni jalb qilishning boshlanishi.
3-bosqich	1997-2000	Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari bozorining shakllanishi.	"Qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyat yuritish mexanizmi" qonunining qabul qilinishi.	AJlar uchun obligatsiyalar chiqarish orqali uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarining paydo bo'lishi.
4-bosqich	2001-2006	Fond bozorining yangi segmentlarining rivojlanishi.	"Qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanish dasturi"ning tasdiqlanishi.	AJlar uchun yangi moliyaviy instrumentlar orqali investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarining kengayishi.

O'zbekistonda fond bozorining shakllanishi va rivojlanish jarayonlari aksiyadorlik jamiyatlarining (AJ) investitsiya faoliyatini moliyalashtirish tizimining samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Har bir rivojlanish bosqichi AJlarning moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatlari, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarining rivojlanishi va korporativ boshqaruvning takomillashuviga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

1. Birinchi bosqich (1991–1993)

Ushbu davrda fond bozorining asosiy institutsional elementlari shakllandi, shu jumladan, qimmatli qog'ozlar bozorining huquqiy asoslari yaratildi. Bu AJlarga rasmiy moliyaviy instrumentlar orqali (masalan, aksiyalar va obligatsiyalar) moliyalashtirish imkoniyatlari yuzaga keldi. Shu bilan birga, fond bozorining boshqaruv tizimi va ishtirokchilarni attestatsiyalash kabi tartibga soluvchi mexanizmlar AJlar investitsiya faoliyatining sifatini oshirishga zamin yaratdi.

2. Ikkinchi bosqich (1994–1996)

Xususiylashtirish jarayonlari va huquqiy me'yorlarning takomillashuvi AJlarga o'z kapitalini kengaytirish va yangi investorlarni jalb qilish imkoniyatlarini yaratdi. Milliy fond bozorining rivojlanishi, ayniqsa, aksiyalar va veksellar bozorining kengayishi AJlarning kapital bazasini mustahkamlashga xizmat qildi. Depozitar tizimining shakllanishi esa investorlar manfaatlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirdi, bu esa investitsiyalarni jalb qilishda ishonchni oshirdi.

3. Uchinchi bosqich (1997–2000)

Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari bozori va birjadan tashqari bozorlarning rivojlanishi AJlarga diversifikatsiyalangan moliyalashtirish vositalarini taqdim etdi. Veksel muomalasining tartibga solinishi va davlat ulushining ko'payishi AJlarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda yangi imkoniyatlar yaratdi, biroq davlat ulushining yuqoriligi ba'zan xususiy investorlarning faolligini kamaytirishi mumkin edi.

4. To'rtinchi bosqich (2001–2006)

Fond bozorining instrumentlari sonining ko'payishi, jumladan, depozit sertifikatlari, korporativ obligatsiyalar va davlat g'aznachilik majburiyatnomalarining paydo bo'lishi AJlarga kengroq moliyaviy resurslarni jalb qilish imkonini berdi. Shu bilan birga, fond bozorining diversifikatsiyasi va yangi moliyaviy vositalarning joriy etilishi AJlarning investitsiya portfelini optimallashtirish va moliyaviy risklarni boshqarish imkoniyatlarini kengaytirdi.

2 <https://www.uzse.uz/analytcs/> сайти маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси

3-jadval. Aksiyalar bozorining asosiy ko'rsatkichlari³

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2021	2022	2023	2024	2025
Savdo hajmi, mln. so'm	17 299	3 036 086	685 959	23 465	16 101
O'rtacha kunlik savdo hajmi, mln. so'm	865	151 804	32 665	1 067	738
Bitta bitimning o'rtacha hajmi, mln. so'm	6	400	44	0,5	0,4
Bitimlar soni, dona	3 014	7 598	15 630	49 425	43 610
O'rtacha kunlik bitimlar soni, dona	151	380	744	2 247	1 982

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, o'tgan davrda aksiyalar bozorida 2022-yilda savdo hajmi sezilarli ravishda oshib 3,036 milliard so'mga etgan. Bu fond bozorida faoliyatning o'sishiga va investorlar faolligining oshishiga dalolat beradi. Keyingi yillarda bu ko'rsatkichlar pasaygan bo'lsa-da, 2024 va 2025 yillarda yana faollik oshishi kuzatilmoqda, bu esa bozorning barqarorlikka intilayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, 2022-yilda kunlik savdo hajmi 151 mln. so'mga ko'tarilgan, bu 2021-yilga nisbatan keskin o'sishni anglatadi. So'nggi yillarda bu ko'rsatkichlar pasaygan bo'lsa-da, yana barqaror darajada qolmoqda. 2022-yilda bitta bitim hajmi juda yuqori 400 mln. so'm, ammo 2023-yildan boshlab u keskin kamayib, 2024 va 2025-yillarda juda kichik miqdorlarga tushgan. Bu, ehtimol, kichikroq, ammo ko'p sonli bitimlarning amalga oshirilayotganidan dalolat beradi.

Bitimlar soni va kunlik o'rtacha bitimlar soni 2021-yildan boshlab doimiy oshib bormoqda, 2024-yilda eng yuqori ko'rsatkichga 49 425 dona bitimga etgan. Bu bozor ishtirokchilari sonining oshishini va savdo faolligining kuchayishini ko'rsatadi. Dunyoda davom etayotgan ziddiyatli geosiyosiy vaziyat, shuningdek rivojlangan mamlakatlar moliya tizimlarida yuzaga kelgan noaniqliklar sababli moliya bozorlaridagi tebranuvchanlikning ortishiga qaramasdan 2023-yilda jahon moliyaviy sharoitlar indeksida ijobiy tendensiya saqlanib qoldi. Shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozori bo'yicha ijobiy o'zgarishlar, shu jumladan ularning narxlarida kuzatilgan past o'zgaruvchanlik darajasi global makromoliyaviy holatning yumshashiga ta'sir ko'rsatdi.

Mamlakatimizda so'nggi yillardagi makroiqtisodiy barqarorlik aksiyadorlik jamiyatlarining (AJ) investitsiya faoliyatini fond bozori orqali moliyalashtirish jarayoniga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Barqaror makroiqtisodiy sharoitlar aksiyadorlik jamiyatlariga o'z faoliyatlarini kengaytirish va yangi investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni jalb qilishda ishonch va kafolat beradi. Shu sababli, fond bozoriga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish, ochiq va shaffof moliyalashtirish vositalarini yaratish aksiyadorlik jamiyatlari uchun moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirishning muhim omilidir.

Bundan tashqari, boshqa davlatlarning tajribalaridan foydalanish, fond bozorida axborot ochiqligini ta'minlash, aholining bo'sh mablag'larini samarali jalb qilish hamda chet el kapitalini milliy fond bozoriga yo'naltirish aksiyadorlik jamiyatlari uchun investitsiyalar hajmini oshirish va sarmoyaviy faoliyatni diversifikatsiya qilish imkonini yaratadi. Bu esa o'z navbatida, aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ikkilamchi korporativ qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqarilgan aksiyalar va obligatsiyalarning likvidligini oshiradi, bu esa investorlarning ishonchini mustahkamlaydi hamda moliyalashtirish xarajatlarini kamaytiradi. Shuningdek, anderayterlar o'rtasida raqobat muhitining shakllanishi aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy vositalarni chiqarish jarayonining samaradorligini oshiradi va moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Xususiylashtirilgan korxonalar aksiyalarining birlamchi bozorida jonlanish fond bozorida yangi sarmoyadorlarni jalb etish va aksiyadorlik jamiyatlarining o'z kapitalini oshirishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, qarz majburiyatlarini ifodalovchi qimmatli qog'ozlarning daromadlilikining pasayishi aksiyadorlik jamiyatlari uchun moliyalashtirish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi va ularning investitsiya loyihalarini yanada rentabelli amalga oshirishga ko'maklashadi.

Umuman olganda, fond bozorining rivojlanishi aksiyadorlik jamiyatlari investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda muhim omil hisoblanib, ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish, investitsion jozibadorligini mustahkamlash va uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

3 <https://www.uzse.uz/analytics/> сайти маълумотлари асосида муаллиф ишланмасы



XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, aksiyadorlik jamiyatlari o'z investitsiya faoliyatini samarali moliyalashtirish uchun fond bozorining mexanizmlari muvaffaqiyatli va samarali ishlashiga tayanadi. Fond bozori mexanizmining transformatsiyalash xususiyati ko'p qirrali bo'lib, u bozorning tuzilmaviy, funksional va genezis jihatlarida o'z ifodasini topadi. Ushbu transformatsion jarayonlar fond bozorining tashkillashtirish, tartibga solish, faoliyat yuritish hamda o'sish va rivojlanish munosabatlarini kompleks qamrab oladi.

Aksiyadorlik jamiyatlari uchun pul resurslarini jalb qilishning asosiy vositasi sifatida fond bozori mexanizmlaridan foydalanish investitsiyalarni oshirish imkoniyatini yaratadi. Firmalar moliyalashtirish ehtiyojlarini qondirish maqsadida qimmatli qog'ozlar - aksiyalar va obligatsiyalarni emissiya qilib, ularni birlamchi bozorda joylashtiradilar. Bu jarayonda aksiyadorlik jamiyati qimmatli qog'ozlar emitenti sifatida, investorlar esa ularni sotib oluvchi sifatida fond bozorining faol sub'ektlariga aylanadi. Qimmatli qog'ozlarning ommaviy emissiyasi natijasida aksiyadorlarning huquqlarini tizimli boshqarish, saqlash va hisobga olish mexanizmlari, xususan depozitar faoliyat va registratorlik tizimlari zarur bo'ladi. Bu esa fond bozorining infratuzilmasini kengaytirish, yangi qatnashchilarni va elementlarni jalb qilish imkonini yaratadi hamda uning miqdoriy va sifat jihatidan rivojlanishini ta'minlaydi.

Shuningdek, fond bozorining turli modellarini qiyosiy tahlil qilish, xususan dunyo tajribasini o'rganish O'zbekiston fond bozorini shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, fond bozorining tanlangan modeliga qarab emitentlarga xizmat ko'rsatadigan depozitariy va kliring tarmog'i bank yoki bankdan tashqari tashkilot sifatida faoliyat yuritishi mumkin. Bu esa aksiyadorlik jamiyatlari uchun moliyalashtirish shart-sharoitlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda fond bozoriga xizmat ko'rsatish sohasidagi texnologiyalar rivojlanib borayotgani, sug'urta, innovatsion va texnik ta'minot kabi yangi faoliyat turlarining bozorga joriy etilishi aksiyadorlik jamiyatlari moliyalashtirishning sifat va samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, fond bozorining transformatsiyalash jarayonlari aksiyadorlik jamiyatlarining investitsiya faoliyatini kengaytirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishga erishishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, Zamonaviy infratuzilma va tartibga solish tizimi orqali moliyalashtirish samaradorligini oshirish, yangi investitsiyalarni jalb qilish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mumkin. Shu sababli, O'zbekistonda fond bozorining rivojlanishiga doir siyosat va mexanizmlar yanada takomillashtirilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 май куни қабул қилинган "2020–2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида"ги ПФ-5992-сонли Фармони. <https://lex.uz/docs/4811025>
2. Миркин Я.М., Институциональные и региональные измерение рынка. Рынок ценных бумаг, 2001, №5, С.100.
3. Тьюлз Дж., Брэдли Э.С., Тьюлз Т. Фондовый рынок. М: ИНФРА-М, 1999, С.16.
4. Дозоров А., Чем торгуют на фондовом рынке, сайт компании «БКС» www.bcs.ru
5. Бакунин М., Соотношение фондового рынка и рынка ценных бумаг. М.: Хозяйство и право.-1996, №5, С.111-112.
6. Пургин А.Н., Фондовый рынок в системе макроэкономической стабилизации. С.33. -2016, №3, С.102-109.
7. Рынок ценных бумаг: Учебник/ под ред. В.А. Галанова, А.И.Басова.-М.:ФиСт.-1996.-С.100.
8. Сизов Ю.С. Формирование системы государственного регулирования рынка ценных бумаг в России. Московский опыт. М.: Планета 2000.-1999.-С.142.
9. Овчинников В.В. Путь к совершенству мирового рынка ценных бумаг: Globalcustody.-М.-1998.-С.488.; Базовый курс по рынку ценных бумаг. - М.: Финансовый издательский дом «Деловой экспресс», -1998.-С.37.
10. Вахабов А.В. ва бошқалар. Хорижий инвестициялар. Ўқув қўлланма.-Т.: "Молия" 2010.-328 б. (1526.).
11. Хамидулин М.Б. Развитие финансового механизма корпоративного управления. иқт.фан.док. илмий даражаси олиш учун ёзилган диссертация автореферати. - Тошкент,2008.-376.
12. <https://www.uzse.uz/> сайти маълумотлари



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>